

**MALAY TILI O'RGANUVCHILARINING YOZMA NUTQIDA KELISHIK
QO'SHIMCHALARIDAN FOYDALANISHDAGI XATOLAR**

Sabariah Sulaiman

Sultan Idris Education University, 35900 Tanjong Malim, Perak, Malaysia

sabariah.sulaiman@fbk.upsi.edu.my

Mahliyo Mamatkulova

Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

ilmumelayu2021@gmail.com

Annotatsiya: Malay tilida insho yozishda ushbu tilni o'rganuvchilar tomonidan odatda xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Ushbu maqolada malay tilidan foydalanishdagi xato turlari kelishik qo'shimchalari yordamida o'rganilib, ulardan to'g'ri foydalanish uchun muammo yechimlari ham ko'rsatib o'tilgan. Ilmiy ish jarayonida O'zbekiston universitetida malay tilini o'rganayotgan talabalar tomonidan tuzilgan o'ndan ortiq insholar chuqur o'rganildi. Ulardan 45 daqiqa davomida "O'zini tanishtirish" mavzusida 100 ta so'zdan iborat insho yozish so'raldi. Olingan natijalar esa Corder nazariyasiga asosan ega, kesim va kelishik qo'shimchalarining qo'llanilishi asosida tekshirildi hamda inshoda yo'l qo'yilgan xatolarda bularning barchasida kamchiliklar borligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: insho, ega, kesim, chet tilida so'zlashuvchi

Abstract: Non-native speakers often encounter difficulties in writing essays in Malay, leading to numerous errors during the composition of their texts. This study aims to identify these errors, focusing on the use of noun phrases and prepositional phrases, and providing correction suggestions for each mistake. A qualitative research approach using content analysis was employed, examining ten short essays written by non-native students learning Malay at a university in Uzbekistan. The students were asked to write an essay titled "Self-Introduction" with a word limit of 100 words within 45 minutes. The analysis of phrases is based on Corder's theory, which categorizes phrases into three types: noun phrases, prepositional phrases, and verb phrases. The findings show that all three types of phrase errors were present. However, this paper discusses only the errors in noun phrases and prepositional phrases, as these were the most frequently encountered in the analyzed essays. It is hoped that the findings of this study will provide useful information to non-native students, helping them improve the quality of their writing by using phrases more effectively.

Keywords: essay writing; noun phrases; prepositional phrases; non-native speakers

Til inson hayotida har kuni qo'llaniladigan yozma va og'zaki aloqa vositasi hisoblanadi. Har bir davlarning o'ziga xos tili mavjud, shuningdek Malayziyaning davlat tili malay tili hisoblanadi. Shuning uchun, malay tili boshqa davlat vakillari uchun yoki Malayziyadagi boshqa davlat vakillari uchun chet tili sanaladi. Zaliza Mohamad Nasir (2017) ta'kidlaganidek, biror bir jamiyatda chet tilini o'rganish katta tarjiba bo'lib, o'sha tilni mukammal o'rganish uchun juda uzoq vaqt talab qilinadi.

Yozma nutqda malay tilidan foydalanishda nafaqat chet ellik talabalarda, balki Malayziyadagi mahalliy aholida ham xatoliklar uchrab turadi. Shu bois, ushbu maqolada yozma nutqda malay tilida kelishik qo'shimchalaridan foydalanishdagi xatolarni analiz qilinib, ushbu muammo yechimlari ham ko'rib chiqiladi.

Malay tilini o'rganuvchilarning insho yozish jarayonida ma'lum qiyinchilikarga uchrashi tabiiy holdir. Ushbu jarayonda ko'p xatoga yo'l qo'yilishi gap tuzilishi, qo'shimchalarda¹ hamda o'timli va o'timsiz fe'llarda² namoyon bo'ladi.

Tadqiqot talabalar kelishik qo'shimchalaridan ikki turini qo'llashda qiyinchilikka uchraganini ko'rsatadi. Bu "dalam" hamda "di" (-da) kelishik qo'shimchalaridir. Dalam so'zi malay tilida keng qo'llaniluvchi kelishik qo'shimchasi hisoblanadi³. Ushbu yo'nalish Zaliza Mohamad Nasir (2017) dan Abdul Hamid Moiden (2020) ishlarida ham ko'rib chiqilgan bo'lib, Cornerning fikrini tasdiqlaydi, ya'ni malay tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar odatda, kerakli bo'lgan elementlarni olib tashlash, kerakmas bo'lganlarini esa qo'shish, aniq elementni tanlay olmaslik hamda ularni noto'g'ri yozish kabi xatoliklarga yo'l qo'yishadi.

Yozma nutqda kelishiklardan to'g'ri foydalanish talabalar orasida hali ham to'liq o'rganilmagan. Olib borilgan tadqiqotlar esa ular haligacha kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olmaganliklarini ko'rsatadi. Bunga esa "dari" hamda "daripada" (-dan) qo'shimchalari misol bo'la oladi. Ushbu holatni esa Nor Ain Nor Azman va Nur Farahkhanna Mohd Rusli (2020) lar o'z tadqiqot ishlarida yanada chuqurroq bayon qilishgan edi. Umumiy olib qaraganda, malay tilida kelishik qo'shimchalaridan foydalanish ilmini egallashda talabalarga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar mavjud. Ularga shaxsiy motivatsiya, malay tili darslarida qatnashish, o'quv materiallarining mavjud bo'lishi, o'rganish davomiyligi va o'qituvchi tomonidan qo'llab quvvatlanishi kabi omillar o'quvchilar muvaffaqiyatining asosiy omili demakdir.⁴

Ushbu tadqiqot ishida ma'lumotlar so'z tarkibini analiz qilish orqali to'plangan. O'zbekiston universitetida malay tilini o'rganuvchi o'nlab talabalar tomonidan yozilgan insholar ko'rib chiqildi. "O'zini tanishtirish" mavzusidagi inshoda 100 ta so'zdan foydalangan holda 45 daqiqa davomida vazifalar bajarildi. So'zlardan noto'g'ri foydalanish Corder (1973) nazariyasiga asosan quyidagicha tekshirildi:

№	So'zlardan foydalanishdagi xatolar
1	Egadan foydalanish
2	Kesimdan foydalanish
3	Kelishik qo'shimchalaridan foydalanish

¹ Ahmad, M., & Mohamad, Z. Kesalahan Tatabahasa dalam Penulisan Pelajar Asing: Kajian di Institusi Pengajian Tinggi Malaysia. *Jurnal Bahasa Melayu*, 8(1), 34-45. (2018).

² Rahman, N. A., & Abdul Halim, S. Analisis Kesalahan Penggunaan Kata Kerja oleh Pelajar Bukan Natif dalam Penulisan Esei. *Jurnal Linguistik Malaysia*, 15(2), 67-82. (2020).

³ Siti Nur Solehah Bahaudin, Mohd Sufian Ismail & Anida Sarudin. Analisis Kata Sendi Nama "Di" dan "Dalam" dalam Penulisan Karangan Pelajar Tingkatan 4.

⁴ Mazlina Baharudin. (2024). PELAJAR ASING : Analisis Kesalahan Kata Sendi Nama Bahasa Melayu. E-Prosiding Persidangan Antarabangsa Sains Sosial & Kemanusiaan kali ke-9 (PASAK9 2024). 17-18 Julai 2024. 615-619. (2024).

Shunga qaramasdan, olib borilgan tadqiqot ishida asosan ega hamda kelishik qo'shimchalariga ahamiyat qaratildi. Ushbu xatolar talabalar tomonidan yozilgan insholar yozdamida tekshirildi.

1. Kami/saya (biz,men) so'zlaridan foydalanishdagi xatoliklar:

7-insho: 'kami / saya' olmoshlari

Gap: Terdapat 4 orang dalam **keluarga kami**. Ayah saya, ibu saya, abang saya dan saya. (Bizning oila 4 kishidan iborat. Mening otam, mening onam, mening akam va men.)

To'g'ri ko'rinishi: Terdapat 4 orang dalam **keluarga saya** iaitu, saya, ayah, ibu dan abang. (Mening oilam 4 kishidan iborat ya'ni otam, onam, akam va men)

Yuqoridagi gapda "keluarga saya" iborasi aniqroq ma'noni ifodalaydi. Saya birinchi shaxs ko'rsatish olmoshi hisoblanib, so'zlovchigagina xos ma'lumotni ifodalab keladi. Ushbu so'z rasmiy holatda ifodalangan bo'lib, xurmat, ehtirom ma'nosida ham keng qo'llaniladi. Kami-biz olmoshi ham birinchi shaxs ko'plik olmoshi sanaladi hamda so'zlovchi va uning guruhidagi shaxslarga nisbatan ishlatiladi, tinglovchiga nisbatan qo'llanilmaydi.⁵ Shuning uchun yuqorida keltirilgan gapda keluarga saya ko'rinishi to'g'ri hisoblanadi.

8-inshoda ham xuddi shunday xatoliklarga yo'l qo'yilgan:

Gap: **Kami** belajar bahasa melayu -**Biz** malay tilini o'rganamiz.

To'g'ri ko'rinishi: **Saya** belajar bahasa Melayu-**Men** malay tilini o'rganaman

Ushbu gapda so'zlovchi o'zini malay tilini o'rganuvchi shaxs sifatida tanishtirmoqda. Shuning uchun kami so'zi saya so'ziga almashtirilishi lozim. Kami so'zi esa ko'plikni anglatadi⁶.

2. Kelishik qo'shimchalaridan foydalanishdagi xatoliklar

1-insho : 'di'-da kelishik qo'shimchasining ifodalanishi

Gap: Saya berasal **di Tasykent**. Men Toshkentdaman

To'g'ri ko'rinishi: Saya berasal **dari Tasykent**. Men Toshkentlikman

Malay tilida di hamda dalam kelishik qo'shimchalari bir xil ma'no anglatadi-da, qo'llanilishi turlichadir. Di kelishigi ma'lum bir maydonni yoki yo'nalishni ifodalaydi. Shuningdek, ot so'z turkumi oldidan qo'yilib, aniq joyni ifodalaydi: di universiti (universitetda), di kampung (qishloqda) yoki di pasar (bozorda). Bundan tashqari, di kelishigi jismoniy joylashuvchi ifodalovchi so'zlar bilan birga qo'llanilmaydi⁷. Shu bois, Saya berasal dari Tasykent to'g'ri tuzilgan gap hisoblanadi.

8-insho: 'dalam' –da kelishigidan foydalanish

⁵ Tatabahasa Dewan Edisi Ketiga. (2015). (Ed. Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hashim Haji Musa, & Abdul Hamid Mahmood). Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka. (2015).

⁶ Asmah Haji Omar Bahasa dan Kuasa: Suatu Perspektif Linguistik Sosial. Dewan Bahasa dan Pustaka. (1993).

⁷ Siti Nur Solehah Bahaudin, Mohd Sufian Ismail & Anida Sarudin. Analisis Kata Sendi Nama "Di" dan "Dalam" dalam Penulisan Karangan Pelajar Tingkatan 4.

Gap: Saya tinggal di bandar Olmalik, tetapi sekarang saya tinggal **dalam rumah sewa.**(Men Olmalik shahrida yashayman, ammo hozir ijarada turaman.)

To'g'ri ko'rinishi: Saya tinggal di bandar Olmalik, tetapi sekarang saya tinggal **di rumah sewa.** (Men Olmalik shahrida yashayman, ammo hozir ijarada turaman.)

Malay tilida dalam kelishik qo'shimchasi ham umumiy yoki mavhum muhitni ifodalab kelishi mumkin. Misol uchun "dalam bilik" birikmasida xona ichidagi narsalar ma'nosini bildirsa, "dalam fikiran" fikrida ,ya'ni mavhumlik ma'nosini ko'rsatib keladi. Shu bilan bir qatorda, dalam kelishigi vaqga, holatga, qonun-qoidalarga bog'liq ma'nolarda ham qo'llaniladi. Misol uchun, "dalam masa 5 minut"(5 daqiqada) yoki "dalam undang-undang negara"(davlat qonunida) kabi. Qisqa qilib, di kelishigi ko'proq joy ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan, dalam kelishigi esa mavhum, fizik joylashuv ba boshqa ma'nolarda qo'llaniladi. Ushbu holatda Saya tinggal di bandar Olmalik, tetapi sekarang saya tinggal **di rumah sewa** to'g'ri tuzilgan gap hisoblanadi.

5-insho: 'dengan' kelishik qo'shimchasidan foydalanish

Gap: Saya sangat gembira **dapat berjumpa anda**-Siz bilan ko'rishganimdan xusandman)

To'g'ri ko'rinishi: Saya sangat gembira **dapat berjumpa dengan anda**-Siz bilan ko'rishganimdan xusandman)

"Dengan" so'zi malay tilida ko'p ma'noni anglatib, munosabat, usul yoki holat ma'nolarida keng qo'llaniladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dengan so'zi gapdagi ikki so'zlarni bog'lashda ham qo'llaniladi, menulis dengan pen(ruchkada yozmoq) iborasida ish-haralatning qanday amalga oshirilganligini ko'rsatadi, berbual dengan rakan (do'sti bilan suhbatlashmoq) iborasida esa ikki individ orasidagi munosabatni ifodalash uchun qo'llanilgan⁸. 'Saya sangat gembira dapat berjumpa anda', gapida ikki shaxs ko'rsatilganligi bois "dengan" kelishigini qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yozma nutqni shakllantirishda tilda yo'l qo'yiladigan xatolarni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Malay tilini o'rganuvchilar orasida ushbu holatni kuzatish ularning yozma nutqni sinchkovlik bilan o'rganishga yordam beradi. Natijada esa talabalarning bilimni yanada shakllantirib, tilni mustahkamlash mumkin bo'ladi. Ushbu tadqiqot ishi malay tilini o'rganuvchi chet el talabalari faoliyatidagi ega hamda kelishik qo'shimchalaridan foydalanishdagi xatoliklarni ko'rib chiqib, ularning bilimni yanada mustahkamlashga juda katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyolar ro'yxati:

1. Asmah Haji Omar Bahasa dan Kuasa: Suatu Perspektif Linguistik Sosial. Dewan Bahasa dan Pustaka. (1993).
2. Abdul Hamid Moiden. Penelitian Konsep Kesalahan Bahasa dari Perspektif Sarjana Barat. Persidangan Antarabangsa Sains Sosial dan Kemanusiaan ke-5 (PASAK5 2020) – Dalam Talian. 24 & 25 November 2020. 724-730.(2020).
3. Ahmad, M., & Mohamad, Z. Kesalahan Tata Bahasa dalam Penulisan Pelajar Asing: Kajian di Institusi Pengajian Tinggi Malaysia. Jurnal Bahasa Melayu, 8(1), 34-45. (2018).
4. Rahman, N. A., & Abdul Halim, S. Analisis Kesalahan Penggunaan Kata Kerja oleh Pelajar Bukan Natif dalam Penulisan Esei. Jurnal Linguistik Malaysia, 15(2), 67-82. (2020).

⁸ Nor Ain Nor Azman & Nur Farakhanna Mohd Rusli. Analisis Penggunaan Kata Sendi Nama dalam Penulisan Berdasarkan Teori Kesalahan Bahasa. LSP International Journal, 7(1), 2020, 39–59. (2020).

5. Zaliza Mohamad Nasir. Kesalahan Tatabahasa Bahasa Melayu dalam Penulisan Karangan Pelajar. LSP International Journal, 4(1), 23-35. (2017).
6. Siti Nur Solehah Bahaudin, Mohd Sufian Ismail & Anida Sarudin. Analisis Kata Sendi Nama “Di” dan “Dalam” dalam Penulisan Karangan Pelajar Tingkatan 4. 7.Jurnal Pengajian Melayu - JOMAS, Jilid 34(1), 2023: 126-144.
7. Tatabahasa Dewan Edisi Ketiga. (2015). (Ed. Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hashim Haji Musa, & Abdul Hamid Mahmood). Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka. (2015).
8. Mazlina Baharudin. (2024). PELAJAR ASING : Analisis Kesalahan Kata Sendi Nama Bahasa Melayu. E-Prosiding Persidangan Antarabangsa Sains Sosial & Kemanusiaan kali ke-9 (PASAK9 2024). 17-18 Julai 2024. 615-619. (2024).
9. Nor Ain Nor Azman & Nur Farahkhanna Mohd Rusli. Analisis Penggunaan Kata Sendi Nama dalam Penulisan Berdasarkan Teori Kesalahan Bahasa. LSP International Journal, 7(1), 2020, 39–59. (2020).